Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi 184-son Qarori asosida kiritilgan)

UDK 504.75.06
ORCID: 0009-0005-3565-1465

OMANOV R. SH.
Termiz davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDA YOSH AVLODNING EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ekologik muammolarning kuchayib borayotgan sharoitida yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan ta'limiy yondashuvlar tahlil qilingan. Ekologik ta'lim jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etishning amaliy yechimlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik tafakkurni erta yoshdan boshlab rivojlantirish ekologik muammolarning oldini olish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

KALIT SO'ZLAR*: ekologik tafakkur, ekologik ta'lim, ekologik ong, yosh avlod, barqaror rivojlanish.*

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В РЕШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается актуальность формирования экологического мышления у молодого поколения в условиях обострения экологических проблем. Анализируются педагогические подходы, направленные на развитие экологического сознания, ответственности и экологической культуры учащихся. Выявлены основные проблемы экологического образования и представлены практические пути их решения. Полученные результаты подтверждают, что развитие экологического мышления с раннего возраста является ключевым фактором предупреждения экологических угроз и обеспечения устойчивого развития общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *экологическое мышление, экологическое образование, экологическое сознание, молодое поколение, устойчивое развитие.*

THE NEED TO DEVELOP THE ECOLOGICAL THINKING OF THE YOUNG GENERATION IN SOLVING ECOLOGICAL PROBLEMS

ABSTRACT. This article examines the necessity of developing environmental thinking among the younger generation in the context of intensifying ecological challenges. It analyzes educational approaches aimed at fostering environmental awareness, responsibility, and ecological culture in students. The study identifies key issues in environmental education and proposes practical solutions to enhance its effectiveness. The findings demonstrate that nurturing environmental thinking from an early age is essential for preventing ecological threats and ensuring sustainable development in society.

KEYWORDS: *environmental thinking, environmental education, environmental awareness, youth, sustainable development.*

KIRISH. Hozirgi globallashuv jarayonida ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, chiqindilar muammosi va tabiiy resurslarning qisqarishi kabi holatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlashni dolzarb masalaga aylantirdi. Bunday vaziyatda muammolarni bartaraf etish faqat texnik va iqtisodiy choralar bilan emas, balki jamiyatda ekologik ong va ekologik tafakkurni shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirish - kelajakdagi ekologik xavfsiz hayotning poydevorini yaratishning eng samarali yo'lidir. Chunki ekologik madaniyat erta yoshdan shakllangan taqdirda, shaxs tabiatga nisbatan mas'uliyatli, ongli va faol pozitsiyani egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ekologik tarbiya, ekologik ong va ekologik fikrlash rivojining ayrim pedagogik jihatlari respublikamiz olimlaridan E.Turdiqulov, Sh.Avazov, X.Norbo'tayev, M.Nishonboyeva, A.Nig'matov, N.Ravshanova, A.Rafiqov, T.Akimova tomonidan o'rganilgan.

Biroq, ekologik fikrlashni shakllantirish bosqichlari, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillar va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, pedagogik faoliyat modeli hamda texnologiyasini takomillashtirish muammosi maxsus pedagogik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Shu maqsadda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur.

Yosh avlodning ekologik tafakkuri - bu atrof-muhit jarayonlarini anglash, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tushunish, tabiatga zarar yetkazmaydigan hayot tarziga intilish hamda ekologik qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir. Bugungi kunda ekologik tafakkurni shakllantirishning zarurligi bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, ekologik muammolar yildan-yilga chuqurlashib borayotgani tufayli yoshlarning bu boradagi bilimlari va xabardorligi yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Ekologik jarayonlarni anglagan yoshlar chiqindilarni kamaytirish, suv va energiyani tejash, resurslardan oqilona foydalanish kabi odatlarni kundalik hayotiga singdiradi. Ikkinchidan, ekologik tafakkur yoshlarning muammolarga tanqidiy yondashishi, sabablarni tahlil qilishi va o'ziga xos yechimlar topishiga yordam beradi. Bu esa uzoq muddatda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sanaladi.

Uchinchi omil sifatida, zamonaviy taraqqiyotning texnologik yo'nalishda rivojlanishi ekologik xavflarni ham kuchaytirayotganini ta'kidlash mumkin. Shu bois, yoshlarning ekologik tafakkurini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllantirish zarur. Virtual reallik, ekologik simulyatsiyalar, ekologik monitoring ilovalari, interaktiv o'yinlar orqali bolalar tabiat jarayonlarini real holatda kuzatib, ekologik masalalarga chuqurroq qiziqa boshlaydi. Bunday raqamli ta'lim vositalari ekologik tafakkurni oshirishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar ekologik loyihalarga jalb qilinsa, ularda amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Masalan, "yashil maktab" tashabbuslari, ko'chat ekish aksiyalari, chiqindilarni saralash bo'yicha loyihalar, ekologik festivallar va tanlovlar ekologik madaniyatni mustahkamlaydi. Ekologik faoliyatga qo'shilgan o'quvchilar tabiatni asrashning amaliy ahamiyatini tezroq anglaydi.

Yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirishda oilaning, maktabning, jamiyatning va ommaviy axborot vositalarining o'rni ham yuqori. Ota-onalarning ekologik savodxonligi farzandlarning ekologik xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi. Maktabda esa interfaol metodlar, tajribalar, kuzatuvlar, loyihaviy ta'lim kabi usullar o'quvchilarda ekologik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Jamiyatdagi ekologik targ'ibotlar esa ekologik madaniyatni yanada mustahkamlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ekologik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Eng avvalo, ta'lim tizimida ekologik mavzularning yetarli darajada qamrab olinmaganligi, darsliklarda ekologik tushunchalarning yuzaki berilishi va metodik qo'llanmalar yetishmasligi o'quvchilarda ekologik ongni chuqur shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Boshlang'ich sinflardan boshlab ekologik bilimlarni bosqichma-bosqich, sistemali tarzda berilmagani natijasida, yoshlarning ekologik muammolarga yondashuvi ko'pincha faqat umumiy tasavvur bilan cheklanib qoladi.

Ikkinchi muammo sifatida pedagoglarning ekologik ta'lim berish bo'yicha malakasining yetarli emasligi qayd etiladi. Ko'plab o'qituvchilar ekologik jarayonlar, barqaror rivojlanish g'oyalari yoki raqamli ekologik ta'lim vositalari haqida yetarli bilimga ega emasligi sababli darslarda mavzuni chuqur ochib bera olmaydi. Bu esa ekologik tafakkurni shakllantirish jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Uchinchi muammo jamiyatdagi ekologik madaniyatning pastligi bilan bog'liq. Ota-onalarning ekologik savodxonligi yetarli bo'lmagani, oilaviy tarbiyada ekologik odatlarga e'tibor berilmasligi yoshlarning ekologik xulq-atvoriga salbiy ta'sir qiladi. OAVda ekologik mavzularning yetarlicha targ'ib qilinmasligi ham ekologik madaniyatning shakllanishini sekinlashtiradi.

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

To‘rtinchi muammo sifatida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishning cheklanganligi ko‘rsatiladi. Bugungi kunda ekologik ta’limni samarali tashkil etishda virtual simulyatsiyalar, AR/VR texnologiyalari, ekologik monitoring ilovalari va interaktiv platformalar muhim o‘rin tutadi. Ammo ko‘plab ta’lim muassasalarida bu texnologiyalar mavjud emas yoki ulardan foydalanish bo‘yicha tajriba yetishmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yechimlar zarur. Birinchidan, ta’lim dasturlarini ekologik mazmun bilan boyitish, darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yangilash, ekologik mavzularni yoshga mos, qiziqarli va amaliy shaklda ishlab chiqish talab etiladi. Ekologik ta’limni maktabgacha ta’limdan boshlab bosqichma-bosqich integratsiya qilish ekologik tafakkurni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagoglar uchun ekologik ta’lim bo‘yicha maxsus seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. O‘qituvchilar ekologik jarayonlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va interaktiv ekologik metodlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak.

Uchinchi yechim sifatida, jamiyatda ekologik madaniyatni targ‘ib qilish, oilalar uchun ekologik treninglar va tadbirlar o‘tkazish, OAVda ekologik mavzularga e’tiborni kuchaytirish tavsiya etiladi. Oilada shakllangan ekologik odatlar bolalarning keyingi ekologik xulq-atvorida muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchi yechim - ta’lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash va ularni darslarda qo‘llashni yo‘lga qo‘yishdir. Ekologik o‘yinlar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va ekologik loyihalar o‘quvchilarning ekologik jarayonlarni chuqur anglashiga va o‘zaro bog‘liqliklarni tushunishiga yordam beradi.

Ushbu yechimlarni tizimli amalga oshirish yosh avlodning ekologik tafakkurini shakllantirishga, ekologik muammolarga ongli munosabatni rivojlantirishga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA. Yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirish nafaqat ta’lim tizimining vazifasi, balki jamiyatning kelajak hayot sifati uchun mas’uliyatidir. Erta yoshdan boshlab ekologik ong va mas’uliyat shakllantirilgan taqdirda, yoshlar ekologik muammolarga befarq bo‘lmaydi, atrof-muhitni asrashda faol ishtirok etadi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Raqamli texnologiyalar, amaliy loyihalar, oilaviy tarbiya va maktabdagi ekologik o‘quv jarayonlarining uyg‘unligi yosh avlodning ekologik madaniyatini mustahkamlashning eng samarali yo‘lidir. Demak, ekologik muammolarni hal etishda yoshlarning ekologik tafakkurini rivojlantirish - barqaror rivojlanishning asosiy garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Karimov, A. “Ekologiya asoslari va atrof-muhit muhofazasi.” – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.

2.Yo‘ldoshev, M., & Qodirova, N. “Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar.” – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.

3.Omanov R. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik tafakkurni shakllantirish // o‘quv qo‘llanma. – Termiz, 2024. – 81-bet.

4.Omanov R. Boshlang‘ich sinf o’quvchilarida tizimli ekologik fikrlash elementlarini shakllantirish modeli va texnologiyalari // Texnologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb muammolari mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Termiz, 2024. – B. 414–418.

5.Omanov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish vositasida tizimli ekologik tafakkur elementlarini shakllantirish // Boshlang‘ich ta’lim: samarali ta’lim amaliyoti, muammolari, istiqbollari mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Termiz, 2024. – B. 99–103.

Оманов Р. Бошланғич таълим ўқувчиларида атроф-муҳитга маъсулятли муносабатни шаклантириш // “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to’plami материаллари. – Тошкент, 2021. – Б. 315–318.